

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»



Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti
rektori prof.N.R.Barakaev
« 06 » 2022 yil

**60210400 – “Dizayn (milliy kostyum)”
ta’lim yo‘nalishi uchun**

**IJODIY IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Toshkent-2022

Dastur Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (Bux MTI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2022 yil 16 iyun, № 9-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

Bux MTI "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrası mudiri
Sh.X.Samiyeva

Bux MTI "Texnologik mashinalar va jihozlar" kafedrası dotsenti
L.N. Nutfullayeva

Taqrizchi:

Bux MTI 'Tikuvchilik sanoatida innovatsion texnologiyalar' kafedrası dotsenti S.U. Pulatova

KIRISH

Kostyum – bu insonning individualligini yoki ijtimoiy guruhni ifodalovchi muayyan obrazli badiiy sistema. Yelka va bel kiyim, bosh kiyim, bezaklar, grim, soch turmagi, tanani bo'yash, uning shaklini o'zgartirish-bularning barchasi birgalikda kostyumni tashkil etadi.

Libos - insonni nafaqat muhit ta'siridan himoya qilish, balki muayyan etnosga xos bo'lgan belgili tushunchalar majmuini o'ziga singdirgan estetik ma'lumotni yaratishga mo'ljallangan kiyimlarning tarkibiy qismlari va buyumlar tizimidan tarkib topgan uyg'unlikdir. Libos bir paytda kiyiladigan ustki va ichki kiyim, bosh kiyimi va belbog', shuningdek, soch turmagi va zeb-ziynatlarni o'zida birlashtiradi. Faqat shundagina uyg'un libos haqida fikr yuritish mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, an'anaviy liboslar, ularning tarixi va bezaklariga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda ibratli an'ana va qadriyatlarimizni asrab avaylash, madaniyatimiz va san'atimizni tobora rivojlantirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning badiiy did va tafakkurini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo'lib, ijodiy tasavvurni, obrazli-konstruktiv tafakkur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun **"Kompozitsiya"** fan sifatida zaruriyati juda katta.

60210400 – "Dizayn (milliy kostyum)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlaridagi dizayn fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. 60210400 – "Dizayn (milliy kostyum)" ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar ijodiy imtihonda **"Kompozitsiya"** fanidan amaliy ish bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Jami ball	Jumladan:
	"Kompozitsiya" fanidan
156	156

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruksiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Kompozitsiya – barcha san’at turlarini asosiy tushunchasi bo’lgani uchun abituriyentlar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi abituriyentlarda obrazli o’ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslarni badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko’nikmalarni hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko’nikmalarini aniqlash. Abiturientning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g’oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o’zaro uyg’unligi.

1. 60210400 - Dizayn (milliy kostyum) ta’lim yo’nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan ijodiy imtihon dasturi

1.1. “Kompozitsiya” fani bo’yicha

Imtihonda abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikasiya va b.) berilgan mavzu bo’yicha milliy liboslar to’plami kompozitsiyasi bajariladi.

Kompozitsiya A3 formatdagi qog’ozda **180** daqiqa mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning Kompozitsiya ishlari bitgandan so’ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal **156**-balli shkala bo’yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo’yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o’tkaziladi.

2. Imtihon jarayonlariga abituriyentning harorati tekshirilib so’ngra dezinfeksiya qilingan auditoriyalarga guruh nazoratchisi hamroxliligida kiritiladi.

3. Yuz niqobi hamda bir martalik tibbiyot qo’lqoplarida bo’lishligi lozim.

4. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

5. Abiturient amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan muxrlangan qog’oz (A3) beriladi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

6. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo’l qo’yilmaydi.

7. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

8. Har bir auditoriyada abituriyentlar билет tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- A3 formatdagi qog'oz;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlarga;
- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);
- yumshoq o'chirg'ichlar;
- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;
- Kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, mo'y qalam, geleviy ruchkalar va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o'zining turli texnik qobiliyatlariga bog'liq boshqa instrumentlarga ham ega bo'lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo'yoqlar;

- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan Kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

9. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampli bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

10. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

11. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim;

12. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Kompozitsiya" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

13. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

14. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

**"Kompozitsiya" fanidan imtihon topshiruvchi abituriyentlar
quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

- Kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g'oyaviy mazmundorligi;

- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to'g'ri ishlatilganligi;

- chizilgan figuralarning bir-biriga uyg'unligi, elementlarning to'g'ri topilganligi;

- berilgan topshiriqning mazmuni, ma'nosi to'liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

60210400 - «Dizayn (milliy kostyum)» ta'lim yo'nalishi kompozitsiya bo'yicha ijodiy imtihoni uchun mavzular ro'yxati:

1. Milliy uslubidagi ayollar kostyumi va aksessuarlari.
2. Milliy uslubidagi erkaklar kostyumi va aksessuarlari.
3. Zamonaviy uslubidagi ayollar kostyumi va aksessuarlari.
4. Zamonaviy uslubidagi erkaklar kostyumi va aksessuarlari.
5. O'zbek milliy kostyumi elementlari asosida o'smir qizlar kostyumi.
6. O'zbek milliy kostyumi elementlari asosida o'g'il bolalar kostyumi.
7. Ayollar milliy kundalik kiyimi.
8. Erkaklar milliy kundalik kiyimi.
9. Bog'cha yoshidagi qiz bolalar milliy bashang kiyimi.
10. Bog'cha yoshidagi o'g'il bolalar milliy bashang kiyimi.

Ijodiy imtihonda "Kompozitsiya" fani bò'yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Mezonlar	Maksimal ball	Abituriyent to'plagan ball
1.	Kostyum kompozitsiyasini qog'ozga kompozitsion to'g'ri joylashtirish.	20,0	
a)	tasvir qog'ozda kompozitsion to'g'ri joylashtirilgan	20,0	
v)	qisman kompozitsion xatoga yo'l qo'yilgan	10,0	
s)	to'g'ri komponovkaning yo'qligiga	0	
2.	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy yechimi va kreativligi.	30	
a)	Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy yechimi ifodalanganligi va kreativ yondashuv mavjudligi	30,0	
v)	Kompozitsiya mavzuga mos kelganda, zamonaviy moda yo'nalishi va dizayn talablariga qisman mos kelganda va kreativ yondashuv mavjudligi	15,0	
s)	Kompozitsiya mavzuga mos kelmaganda, kreativ yondashuv mavjudmasligi	0	

3.	Tasvirlanayotgan milliy kostyumni va kompozitsiya detallarini to'g'ri proporsiyalarda ifodalanganligi	28,0	
a)	tasvirlanayotgan milliy kostyum va kompozitsiya detallarini proporsiyalari to'g'ri topilgan	28,0	
v)	perspektiva va kompozitsiya qoidalariga qisman rioya qilingan, proporsiyalarni aniqlashga harakat qilingan, kamchiliklar mavjud	14,0	
s)	perspektiva va kompozitsiya qoidalariga rioya qilinmagan, proporsiyalari noto'g'ri topilgan	0	
4	Milliy kostyum hamda materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini to'g'ri topilganligi	28,0	
a)	milliy kostyum hamda materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini to'g'ri topilganligi, soya – yorug'lik qonuniyatlariga amal qilingan, materiallar fakturasi ko'rsatilgan	28,0	
v)	rang munosabatlari qisman to'g'ri topilgan, materiallar fakturasini ko'rsatishga harakat qilingan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	14,0	
s)	rang munosabatlari qisman to'g'ri topilgan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	12	
d)	rang bilan ishlashda soya – yorug'lik qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular noto'g'ri ko'rsatilgan, materiallar fakturasi ifodalanmagan	0	
5	Milliy kostyumning konstruktiv-dekorativ yechimi aniq ifodalanganligi	25,0	
a)	milliy kostyumda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) to'liq aks ettirilgan	25,0	
v)	milliy kostyumlarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) qisman ko'rsatilgan	13,0	
s)	milliy kostyumlarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) umuman ko'rsatilmagan	0	
6	Milliy kostyumlar kompozitsiyaning to'liq tugallanganligi	25,0	
a)	milliy kostyumlar kompozitsiyasi to'liq umumlashtirilgan va yakunlangan	25,0	
v)	milliy kostyumlar kompozitsiyasi qisman umumlashtirilgan va yakunlangan	13,0	

s)	milliy kostyumlar elementlari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan, kostyumlar kompozitsiyasi tugallanmagan	0	
	Jami	156	

Izoh: Abiturientlarning natijalarini baholash, ko'rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abiturientlar eng yuqori **156** ballga ega bo'ladi.

2. Apellyatsiya tartibi

Abiturientlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.